


# PEDAGOGIK MAHORAT

**MS**  
2022



# PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

Maxsus son

Jurnal 2001-yildan chiqsa boshlagan

Buxoro – 2022

## MUNDARIJA

Nodir YADGAROV. Bo'laqchilik o'qituvchilarida kasbiy ko'nikmalarni shakillantirishda axborot texnologiyalarning o'mi .....	8
Sanjar AZIMOV. Tavsiyi san'atda sinfdan tashqari ishlaming ahamiyati .....	11
Dilshod MAMMATOV. Muhandislik grafikasi fani ni o'qitishning innovation usullari (kompyuter grafikasi asosida) .....	14
Tolib SOBIROV, Qavmuddin OMONOV. Muhandislik grafikasini o'qitishda mo'morchilik obidalardagi geometrik yassashlarning turbiyariy ahamiyati .....	18
Arif KADIROV, Mehrimiso QAHHOROVA. Yoshlarni kasb-hunariga yo'naltirishda milliy qadriyat va an'analarning o'mi .....	21
Shukrat G'ULOMOV. Tarixiy janarda O'zbekiston tasviriy san'ati rivoji .....	24
Shodijon BAKAYEV, Sherozjon SHOKIROV. Badiiy bezash ishlardan ranglarni to'g'ri qo'llash taribi va ularning emotional ta'siri .....	27
Qoryog'di JUMAYEV. Kasb-hunar ta'limi va tarbiya berish jarayonida sharq rivoyatlaridan foydalanimish metodlari .....	30
Muzafar AVLIYAKULOV. Tasviriy san'at o'qituvchini tashkilotchi, metodist va ijodkor .....	32
Гулшара ХАКИМОВА. Традиционная одежда узбекских женщин .....	34
Viloyat TUXSANOVA. Kashtachilik san'ati .....	37
Muhayyo AZIMOVA. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati turlari va ularning o'ziga xos tononlari .....	41
Sanjar AZIMOV, Mafruna SULAYMONOVA. Bo'laq tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida tasviriy san'ating zamonaliviy pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanimish metodikasi .....	44
Shodijon BAKAYEV, J.B.NE'MATOV. Intaryemi shargona qirma ushubda bezatish texnologiyasi .....	47
O'ybek SHOMURODOV. O'rta maktab tasviriy san'at fanida kompyuter texnologiyalaridan foydalanimish .....	50
Aziza MUSINOVA. Amaliy bezak san'atida tasvir va kompozitniyning tutgan o'mi .....	54
Akmal AMINOV. Autocad grafik dasturida 3d o'chxamli obyektlarining koordinatalarini kiritishning o'ziga xos usullari .....	57
Gulshod OSTONOVA. Tasviriy san'at darslarida borliqi idrok etish hamda o'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini oshirish .....	61
Нозима КАДЫРОВА. Особенности национального платья жителей Бухары в XIX веке как элемент науки истории региона .....	64
Nigora IBATOVA. XIX-XX asr O'zbekiston rassomlari ijodida manzara janri .....	67
Shahnoza IBADULLAYEVA. "Manzara janrida ijod qilgan rassomlar asaridan mazza ko'chirish" modulini o'qitishda innovation ta'lim texnologiyalaridan foydalanimish ahamiyati .....	71
Avaz SHUKUROV, Nargiza ASLANOVA. Kulolchilik - xalq amaliy bezak san'ating bir turi sifatida .....	76
Shodijon BAKAYEV, M.S.IO'RAYEVA, D. USMONOV. Amaliy san'atda ranglardan foydalanimish va ularning o'ziga xos xususiyatlari .....	79
Nafisa AVLIYAKULOVA. Bo'laq o'qituvchi shaxsiyatini rivojlanishda zamonaliviy texnologiyalaridan foydalanimish .....	83
Sherali AVEZOV. Amaliy sanat tarixi va uning turlari .....	86
Muxiba SULAYMONOVA. Tasviriy san'ating shaxs ma'naviy kamolotida tutgan o'mi .....	89
Alisher SHIRINOV. Tasviriy san'ami o'qitishda borliqi idrok etish maslah'ulotlari .....	91
Sadoqat SHODIYEVA. Arxitektura yodgorliklarida tasviriy va amaliy san'ami qo'llanilishi .....	94
Nozima ASLANOVA. Bo'shang'ich sinif o'qish darslarida o'quvchilarning badiiy va axborotli matmlar maxsusmini anglash va uni izohlash mulakalarini rivojlanish .....	97
Mohimur JALOLOVA. Diniy binolarda bezak san'ati .....	100
Maxbuba KARIMOVA. Xalq hunarmandchiligi darslarida amaliy bezak san'ati maslah'ulotlarini o'rnatish metodikasi .....	103
Jo'rabeck YARASHEV, Mafrunaboyev AKRAMOVA. O'rta ta'lim maktablarda musiqaning shaxsho va yechimlari .....	106
Журебек ЯРАШЕВ, Нодира ШАДДАМОНОВА. Вопросы музыкальной гармонии в эпохи просветителей IX-XII веков и их гуманистическое значение для культуры молодого поколения .....	108
Jo'rabeck YARASHEV, Maxfura KAMBAROVA. Zamonaliviy pedagogikada kreativlik tushunchasi .....	112
Maxfura KAMBAROVA. Ummumiy ta'lim maktablarida musiqi darslarining nazariy asoslari .....	117
Jo'rabeck YARASHEV, Munira RIZOYEVA. Musiqi madaniyati darslarida stilizatsiya ushubini turli usullarda qo'llashning maxsusuni .....	120
Zarmigor ALAYEVA. Yoshlarni musiqaga ta'limi orqali milliy istiqqlol g'oyalari ruhiida tarbiyalash .....	122

Muniba SULAYMONOVA

Buxoro davlat universiteti  
tarixiy san'at va mukandislik grafikasi  
kafedrasi o'qituvchisi

## TASVIRIY SAN'ATNING SHAHS MA'NAVİY KAMOLOTIDA TUTGAN O'RNI

*Ushbu magolaski tarixiy san'atning shaxs ma'naviy kamolotida tutgan o'rni va ma'naviyat bilan o'zaro uyg'unligi yorinib berilgan.*

*Kalit se'zlar: tarixiy san'at, san'at, qadriyat, ramz, timsol, go'zallik, ma'naviyat, ma'naviy madaniyat.*

*В этой статье освещается роль изобразительного искусства в духовном совершенствовании личности и его взаимосвязь с духовностью.*

*Ключевые слова:* изобразительное искусство, искусство, ценность, символ, символ, красота, духовность, духовная культура.

*This article highlights the role of Fine Art in the spiritual perfection of a person and its mutual harmony with spirituality.*

*Key words:* fine Art, Art, value, symbol, image, beauty, spirituality, spiritual culture.

Kirish. Tasviriy san'atning u yoki bu turining takomillaishihi taraqqiyoti yoki tanazulli jamiyat mafkuraviy hayotiga bog'liq. San'at tarixiy bosqichlarda mafkura vositachisi faoliyat ko'rnatzan. O's davrida mafkura san'at rivojiga ta'sir qilib, ba'si davrlarda ijodkor itte'dodiga samarali ta'sir ko'rnata, ba'san mustabid ruhdagi qarashlar ijodkor faoliyatini cheklab qo'ygan.

Asosiy qizim. Qadim davrlarda san'at bilan din integratsiyasi o'ziga xos holda rivojlantib kelgan. Jahan dimlari - buddaviyilik, kristianlik, islam qadriyatları ham san'at bilan uyg'unlashagan. Har bir dindagi ilohiy qadriyatlar san'atda ham timsol sifatida yaratiladi. San'atkor badiiy obraz orqali hayotni nafosatli qadriyat sifatida ifodalaydi. Shuningdek, islam qadriyatları ham san'atda hissiy obrazli ramz, timsol tarzida o's aktsini topadi. Ramziylik voqeqlikning aynan o'zini emas, balki ishora, o'xhatish orqali anglatishdir. San'atdagi bu usul Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" asaridagi qushlar obrazidagi ramziy tasviriy san'atda yaqqol namoyon qilingan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridest, adabiyot, san'at va madaniyat yashassa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi [4]. Ajodolar tomonidan yaratilgan ma'naviy mevos, shu jumladan, san'at asarlari shaxs ma'naviyatini yuksaltirish ozilidir. Jamiyat ma'naviy hayotining o'zagi - ma'naviy madaniyat bo'lib, u jamiyat manjudligi va rivojida o'ziga xos gnoseologik asos rolini o'yaydi. Ijtimoiy ong, shu jumladan, mafkura, milliy g'oya ma'naviy madaniyatning substansional elementlari hisoblanadi.

"Ilm - inson munammosini hal qilish yo'lidagi birlinchi bosqich, axloq - ikkinchi bosqich, san'at esa eng xusifa, eng ardoqli qatlama ga yutib borishga urinithdir" [1, 118], degan edi Xosa Ortega-i-Gasset. Ilm-fanning nozik qirralarini mutaxassislargina tushunadi, san'atning ta'sir doirosasi esa juda keng bo'lib, ommaga yetib borish tezligi yuqorida. Insonning ham aqlini, ham his-tuyg'ularini qurish olgani uchun ham san'at ijtimoiy hayotda katta kuchga ega.

Tasviriy san'atning yangi jamiyatni qurishdagagi shahmiyati, ajodolarimiz qadriyatlarni o'ziga singdirgan va singdirayotgan islam san'ati orqali ma'naviy madaniyatni yuksaltirishdagi roli beqiyosdir.

Bugungi kunda san'at shahmiyatlarning usturor vazifalaridan biri - yoshlarga ibrat bo'la olsadigan ma'naviy barkamol insonlar obrazini yaratish bo'lsa, olimm ulamolar, ziyorolar xizmatidagi muhim vazifa - dingsa sog'lom munosabati shakllantirish, fikr qashshoqligi va diniy martaassublikka qarshi kurashishdan iborat.

Islam dinining mnqaddas kitobi Qur'onin karimning "Hashr" surasi, 24-oyatida shunday deyilgan: "U - Yaratuvchi, (yo'qdan) Bor qiluvchi, (barcha narsaga) Surat (va shakl) beruvchi Allahdir. Uning go'zal imulari bordir. Osmanlar va Yerdagi (bor) narsa Unga turbeh aytur. U Qudratli va Hikmatli (zot)dir" [2, 548]. Demak, islam ta'llimotida borliq ilohiy voqeqlikdir, uni Allah yaratgan. Vahdoniyat - Allahning yakkayu-yagonaligi islonning asosiy g'oyasi hisoblanadi. Ilk borliq Allahning o'zidir, olamdag'i barcha go'zalliklar va shakllar Allahbdandir. Allah yaratgan barcha ijobjiy ma'naviy kategoriyalar (sazgulik, go'zallik, adolat, sahovat kabi) badiiy obraz orqali idealistikka olib keladi degan g'oyani anglatadi va idealistikning ma'naviyatda obyektivlashtirmini qaror toptiradi. Idealistik inson borlig'ining eng oly qadriyatlari bo'lgan

ezgulik, haqiqat, adolat, go'zallik va boshqa ijobjiy g'oyalar, tasavvurlar bilan uyg'unlashib, san'atda obyektivlashadi va aksiologik tus oladi.

Inson berling'i haqida Qur'oni karimning "Tin" surasi 4-oyatida: "...haqiqatdan, Biz insonni xushhichim va xushsurat (shakilda) yaratdik" [2, 597], deyilgan. Demak, islam dinida Allohning mavjudligini tabiat, inson ma'naviy go'zalligining qurʼatini tasvirish orqali amalga oshiriladi.

Shuningdek, u yuksak axloqiy ma'naviy me'yorlar orqali olyi hilqat, qadriyat sifatida tushunilgan. Q.Nazarov inson ongi funksiyatini to'rt komponentga bo'lib, ularning to'rtinchchi qismimi qadriyatlar komponenti deb oladi. Bunda shaxsing olyi ruhiy ideallarini, ularni vujudga keltiruvchi fantaziyalari va ijodiy tushunchalar ko'rinishida joylashgan bo'ladi, deydi va bu ularning ijodiy o'z-o'zini namoyon qilib qadriyatlar badiiy va falsafiy-diniy matnulari, tasviriy san'at, musiqo ko'rinishida bo'ladi. Inson mantiqa, tasviriy san'at obrazlarini tuygan holda o'ziga va boshqalarga munosabatda bo'ladi, ya'ni inson o'z ruhiy realligini anglaydi. Shuningdek, inson badiiy obrazlarda borliq tasviri-yu, timsolini jamiyat o'zagi madaniy borliq darajasidan kelib chiqqan holda, tushunchalar, estetik qoidalar, axloqiy me'yorlar, jamiyat tomonidan to'plangan bilimlari orqali aks ettiradi va insonda bu aks ettirish yoki his orqali o'z-o'zini anglash jarayoni boshsanadi va shaxs bo'lib shakllanadi [3, 79-82].

Muhokamalar va natijalar. Texnokratik yo'nalish bo'yicha esa ijtimoiy voqeqlik rivojlanishining asosini san'at tashkil etadi. San'at estetik faoliyatning ixtisoslashgan ko'rinishidir. Estetik faoliyat badiiy faoliyatda, ya'ni san'atda toza holda ko'rinishadi. San'at, avvalo, ma'naviy ishlab chiqarish turidir. Bunday tushunish bo'yicha san'at ma'lum darajada iqtisodiy kategoriya sifatidagi "foyda"ga zid qo'yiladi. San'atning o'zi moddiylikdan ko'ra ma'naviy shifyoqlarni qondiradi. Ammo ishlab chiqarish vanoat mahsulotlarini yaratayotganda san'at bilan ishlab chiqarish o'rnatida bog'liqlik bo'lib, ishlab chiqarish san'atdan bahra oladi. Natijada inson mahsulotlarning estetik mazmuniga e'tibor beriladi. San'atga texnokratik yondashishning ma'no-mazmuni shudir.

Jamiyat bir butun, uning barcha tomonlari inson bilan bevosita va bilvosita bog'langan. Ammo unibun umumiylid dan iborat ijtimoiy voqeqliki anglash bo'yicha yuqorida ko'rataligan tushunishlarni din va san'atni bilishga qo'llasak, uning ontologik va dialektik, jumladan, funksional mohiyatlarini to'liq ochib berilmaydi.

Inson ma'naviyati kishilarning axloqiy, falsafiy, diniy, estetik, iqtisodiy, g'oyaviy, huquqiy, tabiiy-ilmiy va amaliy-ilmiy bilimlari hamda ulardan foydalananishidir. Biz shartli ravishorda tashqi voqeqliking inson niyozida inikovini, obrazlar hovil bo'lishini ma'naviylik deymiz. Badiiy obraz esa uning estetik sohadasgi, jumladan, hayotning badiiy ko'rinishidir. Ular ham hissiy-yaqqol va fikriy obrazlarga bo'linadi. Hissiy-yaqqol obrazlar bevosita joni mushohadada shakllanadi va qabul qilinadi. Badiiy obrazning badiiy bo'limgan obrazlar bilan birga unumiy qonuniyati original obyekting strukturaviy jarayonlariga muvofiq kelishidir.

Agar bu muvofiqlik yo'qolsa, undagi dunyoqarash, biliwchilik, birlashtiruvchilik, tarbiyaviy xossalalar ham yo'qoladi. Hezingi kunda inson tasvirsiz, uning as'ansiy va zamansiy sohalarisiz, jumladan, kodlarisiz, sharli belgilariiz ijtimoiy munosabatlar tizimida qiyinchiliklarga duch keladi.

Jamiyat hayotida sivilizatsiyalar xarakteriga muvofiq diniy qadriyatlar va tasviriy san'at integratsiyasi ham o'zgarib boradi va azmi paytda u jamiyat o'zagi - madaniy borliq tizimida joylashgan bo'lib, inson hayotida ma'naviy asos vazifalaridan birini bajaradi.

Xulosa qilib aytganda, tasviriy san'atning diniy qadriyat bilan uyg'unligi kishilarning ma'naviy shifyoqlarini emotsional va intellektual yo'llar bilan to'ldiradi. Badiiy obrazning ma'naviyatga ta'siri uning tezligi, ommalashishi va uyushtiruvchiligi bilan shanniyatlidir. Shuning uchun ham tasviriy san'atdagi diniy qadriyatlar, mavzular ifodessining kishilarni ma'naviy shakllantirish jarayonidagi roli beqiyosdir.

### Adabiyotlar

1. Xosa Ortega -i -Gasset Odam Ato jannatda // Tafakkur jurnali - Toshkent: 1996. - № 1. - B. 118.
2. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. / Tarjima va tafsir muanifisi: Shayx Abdulkaziz Mansur. - Toshkent: "Toshkent islam universiteti" nashriyot maslahat-birlashumasi, 2007. - B. 548.
3. Nazarov Q. Bilih falsafasi. - Toshkent: "Universitet", 2005. - B. 79-82.
4. <https://www.xabar.uz/uz/madaniyat/shaykat-mirziyoyev-adabiyot-sanat-va>